

**SH. SARIQOV, SH. SARIQOVA,  
X. XOTAMOVA, K. ALLAMJONOV**

# **IQTISOD VA SOLIQ ALIFBOSI**

**Soliq bo'yicha ma'lumotlar bilan to'ldirilgan,  
qayta ishlangan ikkinchi nashr**

**Umumta'lism mакtablarining  
3-sinfi uchun o'quv qo'llanma**

*O'zbekiston Respublikasi Xalq ta'limi vazirligi  
umumta'lism mакtablari uchun o'quv qo'llanma sifatida  
tavsiya etgan*

**МАДДУРӢ  
ИСКАНАДР**

**TOSHKENT  
"YANGIYUL POLIGRAPH SERVICE"  
2008**

65я71

65.261.4я71 **Loyiha rahbari — O'zbekiston Respublikasi**  
**Davlat Soliq qo'mitasi raisi B. Parpiyev**

*Davlat Soliq qo'mitasi raisining  
birinchi o'rinnbosari E. Gadoyev umumiy tahriri ostida*

**Mas'ul muharrir – B. Haydarov.**

**Taqrizchilar:** F. Mirzayev, Davlat Soliq qo'mitasi boshqarma boshlig'i;

N. Xo'jayev, iqtisod fanlari doktori, professor.

**Materiallarning fanlar bo'yicha taqsimlanishi:**



– O'qish



– Atrofimizdag'i olam



– Ona tili



– Matematika



– Mehnat



– Odobnoma


65  
1-98

HO 34847  
093

**Iqtisod va soliq alifbosi:** Umumiy o'rta ta'lim maktabalarining 3-sinfi uchun o'quv qol. / Sh. Sariqov, Sh. Sariqova, X. Xotamova, K. Allamjonov; Mas'ul muharrir B. Haydarov. – 2-soliq bo'yicha materiallar bilan to'dirilgan, qayta ishlangan nashr. – Toshkent: Yangiyul poligraph service, 2008. - 48 b.: rasm.

I.Sariqov, Sherzodbek va boshq.

ISBN 978-9943-309-82-1



BBK 65я71

BBK 65.261.4я71



### Hurmatli o'quvchilar!

1–2-sinflarda o'tilgan "Iqtisod va soliq alifbosi" darslarida kundalik hayotda uchrab turadigan iqtisodiy atamalar va tushunchalar bilan tanishgan edingiz.

Endi sizlarni iqtisodiyotning alohida sohalari bilan tanishtirish vaqtি keldi.

3-sinfda oila iqtisodiyoti, mulk va boylik, daromad va soliq haqida kengroq tushunchalar beriladi. Siz o'zingiz ham bevosita iqtisodiy vaziyatlardagi ishtirokingizni tahlil qilish va baholash imkoniga ega bo'lasiz. Daromad va xarajatlarni hisoblab chiqish, mulkdan tejamkorlik bilan foydalanish malakalarini egallaysiz. Tadbirkorlik va ishbilarmonlik tushunchalari bilan tanishhasiz.

## I. OILA IQTISODIYOTI

### 1.1. Oilaning daromad manbalari: ish haqi, nafaqa, stipendiya va boshqalar. Daromad solig'i

#### 1. O'qing.

##### Bizning oila

Bizning oila besh kishidan iborat. Buvim nafaqaxo'r, otam shifokor, onam o'qituvchi, opam esa talaba. Men mактабда o'qиyman. Buvimga davlat tomonidan qarilik nafaqasi to'lanadi. Otam bilan onam har oyda o'z mehnatlari evaziga maosh oladilar. Opam esa davlatdan stipendiya oladi. Bizning "Damas" avtomashinamiz bor. Biz uni ijara berib qo'yganmiz. Bundan biz har oyda ijara haqi olamiz. Bu pullar oilamizning **daromadini** tashkil qiladi. Otam bilan onam o'z maoshlaridan davlatga soliq to'laydilar. Ijara haqidan ham davlatga soliq to'laymiz. Bu soliq **daromad solig'i** deb ataladi.

Davlat buvimga qarilik nafaqasini, opamning stipendiyasini otam va onamning maoshini ana shunday soliqlar hisobiga to'laydi. Qolgan pullarni yig'ib, uy-ro'zg'or uchun kerakli bo'lган narsalarni xarid qilamiz.

##### Savollarga javob bering.

- 1) Sizning oilangizda kimlar nafaqa oladi? Kimlar maosh oladi? Kimlar stipendiya oladi?
- 2) Yana qanday daromad manbalarini bilasiz?
- 3) O'z oilangizning daromad manbalarini sanab bering.
- 4) Sizning oilangizda soliq to'lovchilar bormi?

#### 2. Rasmlarni kuzating va savollarga javob bering.

- 1) Rasmdagilardan oilaga daromad keltiradiganlarining nomlarini yozing.
- 2) Ulardan qaysilari moddiy ehtiyojlarni qondiradi?
- 3) Ma'naviy ehtiyojlarni-chi?



### 3. Misollarni yeching:

1) Oila a'zolari har oyda 200 ming so'm maosh oladilar. Bundan tashqari, oila o'z mashinasini ijara beraganligi uchun har oyda 440 ming so'm ijara haqi oladi. Oila bir oyda qancha daromad qiladi?

2) Oila 5 kishidan iborat: Otaning bir oylik maoshi 180 ming so'm; onaning bir oylik ish haqi 120 ming so'm; buvining oylik nafaqasi 55 ming so'm. Oilaning bir oylik daromadi qancha?

3)\* Opam 30 ming so'm stipendiya, buvim 60 ming so'm nafaqa, oyim buviming nafaqasidan 2 marta ko'p maosh oladi. Otam esa onamning maoshidan 2 ming so'm ortiq maosh oladi. Oilamizning daromadini hisoblang.

### 4. Rasmlarni kuzating va savollarga javob bering.



1. Rasmdagi shaxslar qanday daromad oladi deb o'ylaysiz?

2. Ulardan qaysilari davlatga soliq to'laydi?

## 1.2. Oila xarajatlari: oziq-ovqat, kiyim-kechak, uy jihozlari, soliq to'lovlari va boshqalar. Oilada iqtisod va tejamkorlik.

### 1. O'qing.



Oilamiz uchun eng zarur narsalar oziq-ovqatlardir. Onam har kuni bizlar uchun turli taomlar, issiq nonlar va shirinliklar tayyorlab beradi. Bularni tayyorlash uchun biz bozordan turli xil sabzavotlar, un, guruch, shakar, tuz, sut, qaymoq kabi mahsulotlarni xarid qilamiz.

#### Savollarga javob bering:

1. Siz qaysi taomni yaxshi ko'rasisiz?
2. Palovni tayyorlash uchun qanday masalliqlar kerak? Non tayyorlash uchun-chi?
3. Bu masalliqlar nimaning evaziga topiladi?

- 2. Rasmdagilardan palov tayyorlash uchun zarur bo'ladigan masalliqlar nomini daftaringizga yozing.



- 3. Berilgan so'zlarga zid ma'noli so'zlarni ayting.



Foya - Zarar      Chiqim - \_\_\_\_\_ Xaridor - \_\_\_\_\_  
Boylik - \_\_\_\_\_ Jamg'arish - \_\_\_\_\_

- 4. Harflarni o'z o'rniga qo'ying va hosil bo'lgan so'zlarni o'qing.



a, j, t, a, x, r, a;  
a, sh, o, m;

a, d, a, m, o, r, d;  
o, q, s, l, i.



5. Nuqtalar o'rniغا berilgan so'zlardan mosini qo'yib ko'chiring.
1. Otam va onam maoshlaridan davlatga ... to'lashadi.
  2. Bu to'lovlar ... solig'i deb ataladi.
  3. Davlat soliqlardan to'plangan pullarni yo'llarni, maktab va shifoxonalarni qurish va ta'mirlashga, qariyalarga ... va talabalarga ... to'lashga sarflaydi.



*Qo'shish uchun so'zlar:* soliq, daromad, qarilik nafaqasi, sti-pendiya.

6. Test savollariga javob bering.

- 1) Qaysi bir mahsulot oiladan ko'proq xarajat talab qiladi?  
a) Go'sht;      b) Non;      c) O'rik.
- 2) Uzumni o'z ishkomlarida yetishtirishdan oila qanday manfaat ko'radi?  
a) Uzum shirin bo'ladi;  
b) Oilada xarajat kamroq bo'ladi;  
c) Oila hech qanday manfaat ko'rmaydi.



7. Rasmlarni kuzating va savollarga javob bering.



1. Rasmdagilarning qaysi biri birinchi navbatda xarid qilinadi? Nima uchun?
2. Bularning qaysi biriga ko'proq pul xarajat qilinadi?
3. Bu xarajatlar qaysi pullar hisobiga amalga oshiriladi?

- 8\*. Otam 60 ming so'mga magnitofon, magnitofondan ikki marta qimmatga gilam sotib oldi. Magnitofon bilan gilam qancha bo'lса, shunchaga oshxona jihozlariни sotib oldi. Oshxona jihozlariga qancha xarajat qilindi?

9. Yashiringan so'zni toping.

$$35 : 7 \quad M$$

$$63 : 7 \quad E$$

$$56 : 8 \quad J$$

$$27 : 9 \quad O$$

$$90 : 9 \quad K$$

$$64 : 8 \quad A$$

$$54 : 9 \quad T$$

$$32 : 8 \quad R$$

6	9	7	8	5	10	3	4

10. Rasmlarni kuzating va savollarga javob bering.



1. Rasmlardagi oziq-ovqat mahsulotlarining nomlarini ayting.
2. Bu mahsulotlardan qanday taomlar tayyorlash mumkin?
3. Oilangizda ko'proq qaysi taom tayyorlanadi?



**11. Uy jihozlari nomlarini toping.**

	o	y	n	a	k
G		I	a	m	
G	u		d	o	n
D	a	z		o	l
K	a	p	k		r

	u	z	l	a	t	g	i	ch
D		v	a	n				
Ch	a		g	y	u	t	g	ich
Q	o	z			n			
T	e	l	e		i	z	o	r



**12. Nuqtalar o'rniiga berilgan so'zlardan mosini qo'yib o'qing. Ular nimani ifodalashini aytинг.**

1. Oilaning eng muhim xarajatlaridan biri davlatga ... to'lashdir.
2. To'lana digan soliqlar hisobiga yurtimiz ... bo'ladi.
3. Soliqlar to'lana masra davlat ... uchun pulni qayerdan oladi?
4. Biz o'qiyotgan ... ham soliqlar hisobiga qurilgan.



*Foydalanish uchun so'zlar: obod, soliq, maktab, xarajat.*

**13. Qavs ichiga shunday 3 ta harf qo'yingki, natijada so'z hosil bo'lsin.**

Daro(...), so(...), tejam(...), xara(...), boy(...).



**14. Quyidagi maqollarni o'qing va ularning iqtisodiy ma'nosini aytib bering.**

1. Bosh omon bo'lsa, do'ppi topiladi.
2. Kiyimning yangisi, do'stning eskisi yaxshi.
3. Yaxshi dam – mehnatga hamdam.



## II. MULK



### 2.1. Bu narsa – meniki, bu narsa – seniki, shaxsiy mulk.

- 2. O'qing.

#### Koptok kimniki?

Muborak opa do'kondan bolalariga o'yinchoqlar xarid qildi. Odilga koptok, Obidga mashina, Muslimaga qo'g'irchoq sotib oldi.



Muslima Odilning koptogini olib o'ynadi va joyiga qaytarib qo'yish yodidan chiqdi. Odil mактабдан keldi. U koptogini opasining o'yinchoqlari yonidan oldi. Buni ko'rgan Obid:



- Opa qarang, sizning o'yinchoqlaringizni akam olayapti – dedi.

Shunda Muslima ukasiga:

- Yo'q, bu mening koptogim emas. Men Odilning koptogini o'ynash uchun olib, qaytarib qo'yish yodimdan ko'tarilibdi. Bu Odilning koptogi, ya'ni uning mulki. Mashina esa seniki. Bu narsa sening mulking. Har birimiz o'zimizning mulkimizga egalik qilamiz, – deb tushuntirdi.




**Savollarga javob bering:**

1. Muslima Odilning koptogiga egalik qila oladimi? Nima uchun?
2. Qaysi narsa Obidning mulki?
3. Sizning mulkingiz ham bormi? Ularni sanab bering.
4. Muslima ukasiga tegishli bo'lgan o'yinchoqni bermoqchi. Qaysi o'yinchoqni berishi mumkin?



3. Rasmlardagilarning nomlarini katakchalarga o'tnini topib joylashtiring. Alohiba ajratilgan katakchalarda hosil bo'lgan so'zni o'qing va uni ta'riflab bering.



4. Qavs ichiga shunday 3 ta harf qo'yingki, natijada so'z hosil bo'lсин.

Ki(...), daf(...), ko'y(...), ye(...), kop(...).

Bu narsalar kimning mulki hisoblanadi?



5. Tushirib qoldirilgan so'zlarni qo'yib, gaplarni to'ldiring va ko'chirib yozing.



1. \_\_\_\_\_ mening shaxsiy mulkimdir.

2. Har kim o'z mulkiga \_\_\_\_\_ qiladi.

6. Berilgan so'zlardan gap tuzing va yozing.



Tejamkorlik, o'z, har, kim, mulkidan, foydalanishi, bilan, kerak.

7. O'qing.



### Seniki va meniki

Aka-ukalar Farhod bilan Furqat tashqarida qorbo'ron o'y-nab, hamma yoqlari qor bo'lib uyga kirishdi. Ertasi kuni ular mактабга ketayotganlarida Furqat botinkasini pechkaning yonidan oldi. Farhod esa botinkasini topa olmadи.

– Mening botinkam qani? – dedi Farhod.



- Seniki tashqarida qoldi – dedi Furqat.
- Nega mening botinkamni olib kirmading? – achchiqlanib so'radi Farhod.
- U sening botinkang, meniki emas. Shuning uchun olib kirmadim, – dedi Furqat.

#### Savollarga javob bering:

1. Nima uchun Furqat akasining botinkasini olib kirmadi?
2. Furqat yaxshi ish qildimi?
3. Furqatning o'rnidagi siz bo'lganiningizda nima qilar edingiz?

- 8. Quyidagi rasmdagi o'yinchoqlardan qaysilari: 1) ko'proq o'g'il bolalarning mulki bo'lishi mumkin; 2) ko'proq qiz bolalarning mulki bo'lishi mumkin; 3) muktab o'quvchilarining mulki bo'lishi mumkin?



## 9. O'qing.

### Pushaymon

Shokir juda ham besaranjom bola. U dadasi olib bergen yangigina etigini tezda yirtib qo'ydi.



Shokir: "Endi mактабга qандай boraman? Etigimdan suv kiradi. Yangi etik sotib olish uchun dadamning puli yo'q. Uning maosh olishiga hali ancha vaqt bor. Afsus, etigimni avaylab-roq kiysam bo'llar ekan. Bu ahvolga tushmas edim. Etigim mening shaxsiy mulkim edi-ku. Uni asrab-avaylash ham mening burchimligini bilmadim", – deb afsuslandi. U bundan keyin o'zining shaxsiy mulkini asrashni o'ziga maqsad qilib oldi. Shaxsiy mulkni asramaslik qiyinchilikka olib keladi.

#### Savollarga javob bering:

1. Etik Shokirning qандай mulki edi?
2. Nima uchun shaxsiy mulk deb ataladi?
3. Shokir shaxsiy mulkidan qандай foydalananar edi?
4. Shokirning o'z mulkini asramasligi qандай oqibatga olib keldi?
5. Siz qандай shaxsiy mulklarga egasiz?

## 10. O'qing.



Sherzod kitobning rasmlarini qирqayotgan edi. Singlisi uning oldiga kelib:

- Nega kitobning rasmini qирqayapsan? – deb so'radi.
- Sening ishing nima?



Bu mening shaxsiy mulkim.  
O'zim xo'jayinman – dedi  
Sherzod.

#### Savollarga javob bering:

1. Sherzodning xatti-harakatlarini siz qандай izohlaysiz?
2. Shaxsiy mulkka qандай munosabatda bo'lish kerak deb o'ylaysiz?
3. Siz Sherzodga qандай maslahat bergen bo'lar edingiz?

## 2.2. Bu narsa – bizniki. Oilaviy mulk. Jamoa mulki. Maktab jamoasi mulki. Davlat mulki

### 1. O'qing.

#### Oilaviy mulk



Anvar uydagi narsalardan o'zining va boshqa oila a'zolaringning shaxsiy mulklari bo'lgan narsalarni ajrata olishga o'rgandi. Lekin uni uydagi ayrim jihozlar va uy-ro'zg'or buyumlarining kimga tegishliliqi va ularning kimning mulki ekanligi to'g'risida-  
gi savol o'yantirib qo'ydi.

"Uyimizdagi televizorni hammamiz ko'ramiz. Shkafdan ham  
hammamiz foydalananamiz. Bu buyumlar kimning mulki bo'lishi  
mumkin? Yaxshisi, onamdan so'rayman", – deb Anvar onasining  
oldiga keldi. Onasi bu savollarga:

– Ro'zg'or buyumlari, uy jihozlari oilaga kelgan daromad  
hisobidan sotib olingan. Bu narsalar sening ham, mening ham  
yoki boshqalarning ham mulki emas. Ular butun oilaga tegish-  
lidir, ya'ni oilamiz mulkidir, – deb javob berdi.



Anvar shunday xulosaga keldi: "Demak, oilada hammamiz foydalananadigan buyumlar – **oilaviy mulk** ekan".

**Savollarga javob bering:**

1. Nima uchun uy jihozlari va ro'zg'or buyumlaridan bola foydalansa ham, uning mulki hisoblanmaydi?
2. Bu mulklar kimniki ekan?
3. Uyingizdag'i dazmol kimning mulki deb o'ylaysiz?

2. O'qing.

**Jamoa mulki**

Biz sizlar bilan shaxsiy mulk, oilaviy mulk tushunchalari bilan tanishib chiqdik. Shaxsiy mulkka faqat bir odam egalik qilishini bilib oldik.



Agar mahalla hashar yo'li bilan biror choyxona qursa, bu mahalla mulki bo'ladi. Bunday mulknini yana jamoa mulki ham deyish mumkin. Biron bir narsa ko'pchilik bo'lib sotib olingan yoki qurilgan bo'lsa, u jamoa mulki hisoblanadi.

**Savolga javob bering:**

Mening mulkim, mahallanikimi? Undan mahalla foydalansa bo'ladimi?

3. Katakchalarga tushirib qoldirilgan harflarni qo'yib yozing. Hosil bo'lgan so'zlar qanday mulklarga misol bo'la oladi?



Shk <input type="checkbox"/> f	<input type="checkbox"/> itob	Ko <input type="checkbox"/> puter	<input type="checkbox"/> agnitofon
St <input type="checkbox"/> l	Dosk <input type="checkbox"/>	Kutu <input type="checkbox"/> xona	Xari <input type="checkbox"/> a

4. Nuqtalar o'rniga oilaviy mulkka tegishli bo'lgan so'zlarni qo'ying va daftaringizga yozing.



1. Bolalar ... da qiziqarli film tomosha qildilar.
2. Mahsulotlarning sifati buzilmasligi uchun ... ga qo'yiladi.
3. Onam ... ni ochib, yangi sochiq oldi.

*Foydalinish uchun so'zlar:* sandiq, muzlatgich, televizor.



• 5. O'qing.

### Bizning maktab

Maktabimizning sinf xonalari keng va yorug'. Sinflar shkaf, parta, stul, doska va chiroqli gullar bilan bezatilgan. Tashqariga esa dam olish uchun o'rindiqlar o'rnatilgan. Maktabimizda lingafon, informatika xonalari bor. Informatika xonasida 15 ta komputer bor. Bundan tashqari, maktabimizning video xonasi ham bor. Bu yerda videomagnitofon, televizorlar qo'yilgan. O'quvchilar mana shu xonalarda o'qiydilar. Maktabimizning yer uchastkasi gulzor qilingan. Ayniqsa, yoz faslida bu yer juda ham go'zallahishib ketadi. Maktabimiz kutubxonasi kitoblarga boy. Bu yerda xohlagan kitobimizni olib o'qishimiz mumkin. Bu narsalar maktabimizning mulki hisoblanadi. Ularni biz ko'z qorachig'imizdek asrab-avaylashimiz kerak.



#### Savollarga javob bering:

1. Maktab qanday mulklarga ega ekan?
2. Maktab mulkiga qanday munosabatda bo'lismiz kerak?
3. Kutubxonadagi kitob kimning mulki hisoblanadi?
4. Qachon kitob o'zingizning mulkingiz bo'lishi mumkin?
5. Maktabdagi buyumlar o'quvchilarning mulki bo'lishi mumkinmi? Nima uchun?

• 6. O'qing.

### Bino

Qishlog'imizda qad ko'tarayotgan maktab binosi qurilishini davlatimiz g'isht, sement va boshqa qurilish materiallari, ishchi kuchi, texnika bilan ta'minlab turadi.

Bir kuni Odina dugonalariiga:

– Bu binoning qurilishiga mening dadam rahbarlik qiladilar. Bu bino bizniki, – dedi.

Dugonalari bu gaplarni eshitib hayron bo'ldilar. Nahotki, qurilayotgan maktab binosi Odinalarniki bo'lsa? Bolalar ertasi kuni bu haqda o'qituvchilardan so'rashganida, o'qtuvchisi:

– Bu qurilish inshooti davlat tomonidan qurilayapti. Barcha xarajat va mablag' davlat tomonidan sarf qilinayapti. Odinaning dadasi esa faqatgina qurilish ishlarini boshqarayapti. Qurilayotgan maktab binosi davlatimizga tegishli, ya'ni **davlat mulki** hisoblanadi, – dedi.

– Davlat maktab binosini qurish uchun mablag'ni qayerdan oladi? – savol berdi o'quvchilardan biri.

– Davlatga sizning ota-onalaringiz, opa-akalaringiz soliqlar to'laydilar. Mana shu maktab ham shu mablag'lar hisobiga qurilmoqda. Demak, bu maktabning qurilishi har birimizning oilamiz hissasi bor ekan, – deb javob berdi o'qituvchi.

### Savollarga javob bering:

1. Bino kimning mulki ekan?
2. Siz o'qiyotgan maktab kimning mulki ekanligini bilasizmi?
3. Davlat maktab qurilishi uchun mablag'ni qayerdan olar ekan?
4. Soliqlar vaqtida to'lansmasa qanday hol yuz berishi mumkin?



• 7. Yashiringan so'zlarni toping.



$4 \cdot 60$

K

$800 : 2$

A

$25 \cdot 10$

U

$45 \cdot 4$

T

$50 \cdot 4$

M

$560 : 2$

D

$10 \cdot 9$

L

$40 \cdot 9$

V

$900 : 3$

A

$80 : 4$

L

$90 : 2$

I

$280$

$400$

$360$

$90$

$300$

$180$

$200$

$250$

$20$

$240$

$45$

• 8. Qavs ichiga 3 ta harf qo'ying va hosil bo'lgan so'zni yozing.



Ki(...), mak(...), ko'y(...), sh(...), simyo(...).

1. Hosil bo'lgan so'zlarning qaysilari davlat mulkiga misol bo'la oladi?
2. Qolganlari kimning mulki bo'lishi mumkin?



• 9. Berilgan so'zlarning tushib qolgan harflarini qo'yib yozing va hosil bo'lgan so'zni qanday mulkka misol bo'la olishini tushuntirib bering.

X\_ntaxta, magn\_tofon, te\_evizor, gil\_m, daz\_ol, \_y, stu\_, sh\_af, mash\_na.



• 10. Nuqtalar o'rниga kerakli so'zni qo'yib, gapni ko'chirib yozing.

1. Maktab ...ini ko'z qorachig'iday asrang.
2. Anvar mакtabning mulki bo'lgan partani sindirdi va bu bilan mакtabga ... keltirdi.
3. Biz turli xil ... larni yig'ib, sinf ... sini tashkil qildik.

*Foydalanish uchun so'zlar: kitob, mulk, kutubxona, zyon.*



**12. Rasmdagilardan davlat mulkini ajratib ko'rsating.**



**13. 4 ta bola to'pga pul to'lagan, 4 tasi esa to'lamagan. Lekin ularning hammasi to'pni o'ynashyapti.**



1. Bu to'p qanday mulk?
2. Bolalarning qaysi biri mulkdor?
3. Qolgan 4 ta bola nima uchun mulkdor emas, axir ular ham to'pni o'ynashyapti-ku?

• 14. Rasmlarni kuzating va savollarga javob bering.

1. Qaysi rasmda kitob mabkab mulki hisoblanadi?
2. Birinchi rasmdagi kitob kimning mulki?
3. Qaysi bir kitob tovar boladi?
4. Kitobdan biz nimalarni o'rganamiz?
5. Kitob kishining qanday ehtiyojini qondiradi?



• 15. Rasmlarni kuzating va savollarga javob bering.



1. Rasmdagi qaysi buyumlar mabkab mulkiga misol bo'la oladi?
2. Qolganlari qanday mulkka misol bo'la oladi?

## 2.3. Mulk solig'i. Yer solig'i. Mulk va yer soliqlari nima?

### 1. O'qing.

Har bir odam ko'proq mulk egasi bo'lishni xohlaydi, albatta. Biz birinchi sinfda inson ehtiyojlari cheksizligi to'g'risida gaplashgan edik. Inson, qancha mulkka ega bo'lsa, yanada ko'proq mulkka ega bo'lishga intilaveradi. Chunki kim qancha ko'p mulkning egasi bo'lsa u shuncha moddiy jihatdan badavlatroq hisoblanadi.



Lekin har bir mulk egasi o'zidagi mulkning hisobidan davlatga ma'lum miqdorda soliq to'lab turishi lozim. Bunday soliq **mulk solig'i** deb ataladi.

Biz foydalanyotgan yerlarimizdan ham davlatga soliq to'lashimiz kerak.

Biz yashayotgan hovli, tomorqa va qishloq joylarda ekin ekish uchun foydalanilayotgan barcha yerlar davlat mulki hisoblanadi. Bu yerlardan foydalanayotgan odamlar ham davlatga ma'lum miqdorda soliq to'lab turishlari kerak. Shaharlar-dagi yerlardan ko'proq, qishloqlardagi yerlardan esa kamroq soliq to'lanadi. Ushbu to'lanadigan soliq **yer solig'i** deb ataladi.

#### Savollarga javob bering.

1. Mulkdor bo'lish bilan inson qanday soliqning to'lovchisiga aylanar ekan?
2. Mulk solig'ini kim ko'proq to'lar ekan?
3. Yer solig'i nima uchun to'lanar ekan?
4. Mulk va yer soliqlari faqat bizning mamlakatimizda kiritilganmi?
5. Davlatimiz mulk va yer solig'idan tushgan mablag'larni qanday maqsadlarga sarflaydi deb o'ylaysiz?

2. Rasmlarni kuzating va savollarga javob bering.
- 
- 
1. Rasmlardagilarning qaysilari odamlarning shaxsiy yoki oilaviy mulki bo'la oladi?
  2. Ulardan qanday soliq to'lana di?
  3. Bu soliq kimga to'lana di?

3. Nuqtalar o'rniga berilgan so'zlardan mosini qo'yib o'qing. Ular nimani ifodalashini aytin.
1. Har bir odam o'z mulki uchun davlatga ... solig'i to'lashi lozim.
  2. ... solig'i yerdan foydalanganlik uchun to'lana di.
  3. Davlat barcha ... yig'imlarini xalq ehtiyojlari uchun sarflaydi.
- Foydalanish uchun so'zlar:* soliq, mult, yer.

4. Rebusni yeching.



## 2.4. Mulk va uning egasi. Xo'jayinlik hissi. Hamma narsaning egasi bo'lgani yaxshimi? Mulk tejamkor kishini yaxshi ko'radi

1. O'qing.



### Xususiy fermer

Behzod har safar tog'asinkiga borganida, doimo sigir va buzoqlarning ovozini eshitib turardi. Sherzod sigir va buzoqlar kimniki ekanligini bilmoxchi bo'llib, tog'a-sidan:

- Tog'a, yonimizdagи fermer xo'jaligi kimga tegishli? – deb so'radi.
- Bu fermer xo'jaligi Tursunboy akaga tegishli. U to'rt yil oldin 30 bosh qoromolni va 6 hektar bedapoyali maydonni xususiylashtirib, kichkina fermani tashkil qilgan. Hozir uning 50 dan ortiq sigir va 20 tacha buzog'i bor. Bular Tursunboy akaning mulki. Ularga Tursunboy aka egalik qiladi, – deb jiyaniga tushuntirdi tog'asi.
- Tursunboy aka ko'p foyda ko'rар ekan-da? – deb so'radi Behzod.
- U faqat o'zi foyda ko'rmaydi. Davlatga fermer xo'jaligi mulkidan mulk solig'i, foydalanayotgan yeri uchun yer solig'i va mahsulotlarini sotishdan tushgan pulidan daromad solig'i to'laydi. Davlat bu soliq yig'imlarini sening maktabingni ta'mirlash uchun ham sarflaydi. Demak, Tursunboy akaning fermer xo'jaligi gullab yashnashidan sen ham manfaatdor ekansan, – dedi tog'asi.



## Savollarga javob bering.

1. Fermadagi sigirlar kimning mulki?
2. Fermaning rivojlanishiga kim sababchi?
3. Fermaga tegishli narsalarga kim egalik qiladi?
4. Tursunboy aka davlatga qanday soliqlar to'laydi?
5. Tursunboy akaning faoliyatidan Behzodga qanday manfaat bo'lishi mumkin?

### 3. O'qing.

Nosir bilan Nodir aka-uka. Ular-ga dadasi koptok olib berdi. Bir kuni aka-uka to'p talashib urishib qolishdi. Akasi ukasini xafa qilib, to'pni tortib oldi va ukasiga:

— Men sendan kattaman, shuning uchun to'pning egasi menman, — dedi.

#### Savollarga javob bering:

1. Nodir ukasiga to'g'ri gapirdimi?
2. Mulkka qanday kishilar egalik qila oladi?



### 4. O'qing.

1) O'qituvchi o'quvchilarga mulk mavzusi bo'yicha mulkka egalik qilishni, boshqarishni, foydalanishni tushuntirdi.

— Bolalar, har qanday narsaning egasi bo'lgani yaxshi ekan, shuni bilib oldingizmi? — deb so'radi.

Shunda o'quvchilar savol berdilar:

— Insonga doimo kerak narsalar: quyosh, yulduz, yer, oy, havoning ham egasi bo'ladimi?

— Yo'q, bu narsalarning egasi bo'lmaydi, bular sotilmaydigan va sotib olinmaydigan tabiiy narsalardir, — deb javob berdi o'qituvchi.



**2)** Malika hovlidagi suv kranining jo'mragini berkitib, ko'cha-ga chiqib o'ynadi. U ko'chadagi suv kranidan suv ichib, uni berkitmay o'ynagani ketdi. Buni ko'rgan bobosi:

– Qizim, beri kel. Nega kran jo'mragini berkitmading? – dedi.

– Bu kran siznikimi? – dedi Malika.

Bobosi:

– Yo'q, qizim, bu jamoaniki, egasi yo'q deb berkitmasdan ketishing yaxshi emas, – deb Malikaga tanbeh berdi.

**Savollarga javob bering:**

1. Hamma narsaning ham egasi bor desa bo'ladimi?
2. Malika to'g'ri ish qildimi?
3. Ko'chadagi kranning ham egasi bor ekanmi? Uning egasi kim ekan?

## 5. O'qing.

Nodirbek bilan Xurshidbek aka-uka. Ularga dadasi yangi poyabzal olib berdi. Nodirbek poyabzalini ehtiyyotlab kiyadi. Maktabdan keladi-yu, uning changini artib, olib qo'yadi va eski poyabzalini kiyadi.

Xurshidbek esa Nodirbekning butunlay aksi. Uning oyog'idagi poyabzaliga qarab bo'lmaydi. Tez orada Xurshidbekning poyabzali yirtildi. U o'z mulkini asramaganligi uchun oyog'iga kiyadigan narsasi qolmadidi. Bu bilan u o'z oilasiga ham zarar keltirdi.

Dadasi bir kuni yana aka-ukalarga poyabzal olib keldi. Nodirbekning poyabzali ikkita bo'ldi. Xurshidbek esa



• endi polyabzalini asrab-avaylashga qaror qildi. Chunki mulk **tejamkor** kishini yaxshi ko'rар ekan.

**Savollarga javob bering:**

1. Nodirbek o'z mulkini qanday saqlar ekan? Xurshidbek-chi?
2. Nima uchun Xurshidbekning poyabzali tezda yirtildi?
3. Biz mulkimizga nisbatan qanday munosabatda bo'lismiz kerak?

• 6. Berilgan bo'g'lnlardan maqol tuzing va ko'chirib yozing.



O'L

YET

CHAB

BIR

TI

KES

1. Maqolning ma'nosini tushuntirib bering.
2. Maqolning iqtisodiy ma'nosini izohlang .

• 7. Yashiringan so'zni toping.

$450 + 90$

J

$900 - 450$

M

$49 + 50$

O

$420 + 169$

E

$800 - 500$

T

$85 + 95$

R

$640 + 200$

A

$100 + 550$

K



• 8. Yashiringan so'zni toping.

$4 \cdot 30$

K

$700 : 2$


M

$348 + 242$

U

$550 - 300$

L



9. 1-rasmdagi qaysi jonivor yoki ekin turidan 2-rasmdagi qaysi mahsulot tayyorlanadi?



1



2



## 10. O'qing.

Ozod dadasidan:

- Dada hovlimiz siznikimi? – deb so'radi.
- Yo'q, o'g'lim, uy hammamizning mulkimiz hisoblanadi, – dedi dadasi.
- Dada, uy va boshqa narsalarning egasi bo'lgani yaxshi-a?
- Ha, albatta, yaxshi.
- Bo'lmasa, ko'chamizning egasi biz ekanmizda. Men xohlagan odamimni ko'chadan o'tkazmasam bo'laverar ekan-da.
- Yo'q , o'g'lim, bu gaping noto'g'ri, hamma narsaning ham egasi bo'la olmaysan. Ko'cha davlatning mulki.

**Savollarga javob bering.**

1. Ozodlarning hovlisi qanday mulk ekan?
2. Ko'cha-chi?

## 11. Fermer qaysi hayvonni tanlashi kerak: sigirnimi yoki echkinimi?

 Sigir bir kunda 16 litr, echki bo'lsa 3 litr sut beradi. Sigir sutining 1 litri 30 so'm, echki sutining 1 litri 40 so'm turadi. Sigir boqish uchun 1 kunda 300 so'm, echkiga 100 so'm xarajat ketadi.





## 2. O'qing.

### O'zbekistonning tabiiy boyliklari

Tabiiy boyliklar – bu tabiat-dan bevosita olinadigan boyliklardir. Bu boyliklar inson qo'li bilan yaratilmagan, balki tabiatda mavjuddir.

O'zbekiston tabiiy boyliklari jihatidan dunyodagi eng boy mamlakatlar sirasiga kiradi. Yurtimizda ayniqsa, oltin, gaz, neft, ko'mir, mis, volfram, uran, bo'r, simob, kvars, ohaktosh, kaliy kabi yer osti boyliklari zaxiralari katta. Daryolarda oqayotgan va buloqlardan otilib chiqayotgan zilol suvlar ham tabiiy boyliklardir.

Tog'lardagi marmar, granit tosh konlari, o'rmonlar ham bizning tabiiy boyliklarimizdir.

Tabiiy boyliklardan foydalanish davlat tomonidan muvofiqlashtirib turiladi. Tabiiy boyliklardan foydalanish, ularni qayta ishlash uchun davlat korxonalarga maxsus ruxsatnoma beradi.

Tabiiy boyliklarni qazib oladigan va ularni qayta ishlaydigan korxonalar davlatga katta miqdorda soliqlar to'laydilar.

Yer ham bizning eng muhim tabiiy boyligimizdir. Yerdan foydalanish uchun maxsus yer solig'i to'lash lozimligini biz oldingi darslardan bilamiz.

#### Savollarga javob bering.

1. Yurtimiz qanday tabiiy boyliklarga ega?
2. Tabiiy boyliklardan qanday tartibda foydalaniлади?
3. Tabiiy boyliklardan qanday soliqlar to'ланади?




3. Rasmlarni kuzating va savollarga javob bering.



1. Rasmdagilardan tabiiy boyliklarni ajratib ko'srsating.
2. Siz nima sababdan bunday tanladingiz?

4. Yurtimiz yer osti boyliklari nomlarini to'ldiring va jumlan o'qing.



• 5. O'qing.

## Neft

Siz oltinning nimaligini bilasiz. U sariq rangli qimmatbaho metall. Lekin "qora oltin" nimaligini bilasizmi? Yerdan so'rib olinadigan neftni qora oltin deyishadi. Uning bunday atalishi bejiz emas. Neftdan juda ko'p mahsulotlar olinadi. Neft bo'limganida mashinalar yura olmas edi. Traktorlar yer hayday olmas, samolyotlar ucha olmas edi. Neft konlari juda ko'p. Yurtimizning bir nechta viloyatlarida neft konlari bor.



### Savollarga javob bering.

1. Nima uchun neftni "qora oltin" deb atashadi?
2. Neftdan qanday mahsulotlar olinadi?
3. Siz yashab turgan joyda neft koni bormi?
4. Siz uyda neftdan olinadigan qanday mahsulotlarni ishlatasiz?

6. Test savollariga javob bering.



- 1) Qaysi yengil mashina O'zbekistonda ishlab chiqariladi?  
a) "Jiguli";      b) "Neksiya";      d) "Mersedes".
- 2) Qaysi biri elektr toki yordamida yuradi?  
a) Avtomobil;      b) Poezd;      d) Trolleybus.
3. Quvurlardan qaysi biri oqadi va o'choqda o't bo'lib yonadi?  
a) Suv;      b) Neft;      d) Gaz.

7. Quyida berilgan bo'laklarni shunday ulangki, natijada maqol hosil bo'lsin.

NI

O'N

KES

EK

NI

BIR

SANG



Maqolning ma'nosini ayting.

8. Qavs ichiga shunday 3 ta harf qo'yingki, natijada so'z hosil bo'lsin.

Pa(...),      ol(...),      ku(...),      nek(...).



Bu narsalar bizning qanday boyligimiz hisoblanadi?

9. Katakchalarga kerakli harflarni qo'ysangiz, neftdan olinadigan mahsulotlarning nomlari kelib chiqadi.



Be□zin, □lim, as□alt, ker□sin, r□zina.

10. Maqollarni o'qing va ularning iqtisodiy ma'nosini tushuntiring.



- a) Harakat, harakatda barakat.
- b) Yer – xazina, suv – oltin.
- d) Mehnat – boylik.

## **3.2. Ixtiro va kashfiyotlar. Tarixiy yodgorliklar, san'at va badiiy asarlar. Qanday odamni boy desa bo'ladi? Boylikning manbalari**

- 1. O'qing.



### **Bobokalonimiz Alisher Navoiy**

Har bir xalqning nomini, shuhratini ellarga taratadigan, ming yillarga olib o'tadigan buyuk insonlari bo'ladi. Bobokalonimiz Navoiy "Xamsa", ya'ni "Besh doston"ini yozib, jahon adabiyoti xazinasini yorqin bir gavhar bilan boyitdi. Uning bu va boshqa asarları xalqımız ma'naviy boyligiga ulkan hissa bo'lib qo'shildi.

Navoiy bobomiz o'zları Sulton Husayn Boyqaro huzurida ulug' vazir bo'lganlar. Umr bo'yı yovlashgan shahzodalarni yarashtirib, masjid va madrasalar, rabot va ko'priklar, karvonsaroylar, hammom va kutubxonalar qurdirganlar.

Xalqparvar bobokalonimizni siz ham sevib, ardoqlang.



#### **Savollarga javob bering.**

1. Navoiy bobomizning "Xamsa"-sini boylik deb atasak bo'ladimi? Nima uchun?
2. Navoiy asarlarini o'qib chiqqan insonning boyligi ko'payadimi? Qanday qilib?
3. Navoiy bobomiz o'zining hayoti davomida qanday savobli ishlarni amalga oshirgan?

- 2. Navoiy bobomizning quyidagi hikmatlarini o'qing va ularning ma'nolarini aytib bering.

1) Xaloyiqqa ko'rma, qilib benavo,  
O'zingga ravo ko'rmaganni ravo.



- 2) Sabr bila ko'r bog'liq ish ochilur,  
Ishda oshiqqan ko'p toyilur.
- 3) Rostdir ulkim, nazari to'g'ridur,  
Kim ishiga egidur, ul o'g'ridur.

### 3. O'qing.

#### Bir tanga

Bir yigit ertadan kechgacha mehnat qildi. Ish haqiga bir tanga oldi. Uni qo'yarga joy topa olmay qoldi. Barchaga ko'z-ko'z qilaverdi. Otasi tangani ko'rmoqchi bo'lib oldi. Uni yonib turgan o'choqqa uloqtirganday bo'ldi. Qarasa, farzandi tangani olish uchun o'zini o'choqqa urmoqchi. Dono kishi o'g'lini to'xtatdi. U o'choqqa tangani emas, tosh otgan edi. O'g'lining pulini qaytarib berdi.

Shunda ota peshana teri bilan topilgan boylik aziz va qadrli bo'lismeni aytdi.

#### Savollarga javob bering.

1. Dono kishi tangani nima qildi?
  2. Nima uchun bola o'zini olovga otmoqchi bo'ldi?
  3. Qanday odamni boy desa bo'ladi?
4. Qarama-qarshi ma'noli so'zlarni topping.

Boy – ...

Mehnatkash – ...

Puldor – ...

Mulkdor – ...

#### 5. Maqollarni o'qing va ularning iqtisodiy ma'nolarini izohlab bering.

- a) Mehnatdan kelsa boylik,  
Turmush bo'lar chiroylik.
- b) Oltinim bor deb maqtanma,  
Hunarim bor deb maqtan.



6. Quyida berilgan bo'laklarni shunday ulangki, natijada maqol hosil bo'lsin. Maqolning iqtisodiy ma'nosini tushuntiring.



7. Krossvorddagagi so'zlarning yetmagan harflarini bo'sh kataklarga yozsangiz, bo'sh kataklarda buyuk olim, yulduzlar dunyosining sultonini va kashfiyotchisi, xalqimiz ma'naviy boyliklariga ulkan hissa qo'shgan bobokalonimizning nomi kelib chiqadi.



## IV. TADBIRKOR KISHILAR


4.1. Tadbirkorlar kimlar? Ular nimasi bilan boshqalardan ajralib turadi? Tadbirkorlar nima ish bilan shug'ullanadilar?

1. O'qing.

### Bo'lajak tadbirkor

Husniddin maktabdan juda ham hursand qaytdi. Chunki bugun o'qituvchisi o'quvchilardan sinf boshlig'i qilib kimni saylashni so'raganda, hamma do'stlari bir ovozdan Husniddinni ko'rsatdilar. O'qituvchi nima sababdan Husniddinni sinf boshlig'i bo'lismiga munosib ekanligini so'raganda, o'quvchilar birin-ketin izoh bera boshladilar:

- Husniddin yaxshi o'qiydi.
  - U bayram, kechalar va boshqa tadbirlarni o'tkazishda birinchilar qatorida harakat qildi.
  - Sinfodoshlari bilan yaxshi muomalada bo'ladi.
- Bu kabi e'tiroflardan keyin Husniddinni sinf boshlig'i qilib saylashdi. O'qituvchisi dasrdan keyin alohida suhabat chog'ida shunday dedi:
- Sen yaxshi o'qisang, odamlar bilan doim shunday muomalada bo'ltsang, sendan yaxshi ishbilarmon, tadbirkor chiqadi. Chunki tadbirkor hamma ishda oldinda bo'lishi kerak.



#### Savollarga javob bering.

1. Tadbirkor, ishbilarmon bo'lismi uchun inson qanday bo'lishi kerak?
2. Husniddinni nima uchun sinf boshlig'i qilib saylashdi?
3. Shunday o'quvchilar sizning sinfigizda ham bormi?

- 2. Rasmillardagi uchchala shaxsni tadbirkorlar deb faraz qiling va ularning qanday ish bajarishini taxminan tavsiflang.



- 3. Savollarga mustaqil javob bering.



1. Sizning oilangizda tadbirkor kishilar bormi?

2. Ular qanday ish bilan shug'ullanishadi?

3. Tadbirkor kishilar o'zining maqsadiga nima evaziga erishadilar?

- 4. She'rni ifodali o'qing va sharhlang.



Bo'lay desang tadbirkor,  
Yaxshi o'qishing darkor.  
Do'stlaringga bosh bo'lgin,  
Ular-la ko'z-qosh bo'lgin.  
Shunda hamma maqtaydi,  
"Yaxshi bola" deb ataydi.

- 5. O'qing.



Ota ikki o'g'lini yoniga chaqirdi va shunday dedi: "Men boshlagan ishni qay biringiz yaxshiroq davom ettirsangiz, o'shangan butun merosni qoldiraman. Men sizlarni sinab ko'raman. Har biringizga 1 000 tangadan pul beraman va bir yilga safarga jo'nataman. Bir yildan so'ng puldan qanday foydalanganingizni aytib berasiz".



Oradan bir yil o'tdi. O'g'illar ota oldiga keldilar.

"Ota, men temirchilik ustاخонасини сотиб олдим ва бир yilda 1000 tangalik taqa sotdim. Hammasi bo'lib, men 50 ta taqa tayyorladim. Har birini 20 tangadan sotdim.

Uni tayyorlashga esa 18 tanga sarfladim".

Ikkinchı o'g'il shunday dedi:

"Men kulolchilik ustaxonasini sotib oldim va bir yilda 500 tangalik ko'za sotdim. Hammasi bo'lib 100 ta ko'za tayyorladim va har birini 5 tangadan sotdim. Uni tayyorlashga esa 2 tangadan sarfladim."

### Savollarga javob bering.

1. Qaysi o'g'il ishni tadbirkorlik bilan olib borgan?
2. Ota merosni kimga qoldirgan? Nima uchun?
3. Tadbirkorlar nimasi bilan boshqalardan ajralib turadi?

### 6. O'qing.

### Shavkatning orzusi

Shavkat juda ham qiziquvchan bola. Ayniqsa, dadasi bilan biror joyga borsa, hamma narsani bilib olish uchun savollarни qatorlashtirib yuboradi. Dadasi ham erinmay uning barcha savollariga javob berishga harakat qiladi.

Bir kuni dadasi Shavkatni bir joyga olib bordi. Shavkat bu yerda nima bo'layotganligini tushunmadidi. Dadasi tengi kishilar bir joyga to'planib olishgan, bir kishi o'rтada bolg'acha ushlab o'tirardi. Shu payt atrofdagi kishilar har xil sonlarni ayta boshladilar. Sonlar borgan sari balandlashib borar edi. Bir kishi eng baland sonni aytganda, bolg'acha ushlab turgan kishi o'sha



- sonni aytib 1, 2, 3 deb sanadi va bolg'achasi bilan nimanidir jaranglatdi. Atrofdagi kishilar eng baland sonni aytgan kishining qo'lini siqib tabrikladilar.

Shavkat dadasidan nima bo'layotganini tushuntirib berishni so'radi.

Shunda dadasi:

- Bu yerda "Kim oshdi" savdosi bo'layapti. Sen eshitgan sonlar pullarning qiymati. Savdoga qo'yilgan tovarning narxi. Eng baland sonni aytgan kishi bu tovarni sotib oldi, – deb o'g'liga tushuntirib berdi.

Shu kuni Shavkat juda ko'p narsalarni bilib oldi. Katta bo'lganda xuddi shu kishilarday bo'lishni orzu qildi.

**Savollarga javob bering.**

1. Shavkat bilan dadasi qayerga borishdi?
2. Shavkatning dadasi nimalarni tushuntirib berdi?
3. Shavkat nimani orzu qildi?
4. "Kim oshdi" savdosida qatnashgan kishilarni kimlar deb atasak bo'ladi?

7. Rasmlardagi kishilarning qay birini tadbirkor deb atasak bo'ladi?





8. She'rni ifodali o'qing. Izohlang.

Tadbirkorlik, deydilar,  
Bu – boylikning manbai.  
Hamma tadbirkor bo'lsa,  
Boy bo'lib ketar edi.



9. Yashiringan so'zni toping.

$30 + 7$

O

$63 : 7$

I

$3 \cdot 20$

R

$70 : 10$

K

$54 : 9$

T

$32 : 4$

R

$50 : 10$

D

$24 : 6$

A

$64 : 8$

B



## 4.2. Tadbirkorlik – boylik manbai. Qanday firmalar ni bilasiz? Ular nima ish bilan shug'ullanadilar?

### 1. O'qing.

#### Ikki do'st

Jamshid bilan Farhod o'zlarini qiziqtirgan savol bilan Iqtisodiyot fani o'qituvchisi Olim akaga murojaat qildilar.

Farhod:

- Ustoz, tadbirkor kishilar faqat o'z foydalarini ko'zlab ish yuritsalar-da, nima uchun ularni hamma hurmat qiladi? – deb so'radi.

Olim aka javob berdi:

- Albatta, har bir tadbirkor foyda olishni o'z oldiga maqsad qilib qo'yadi. Lekin u ish yuritar ekan bir qancha odamlarni ish bilan ta'minlaydi, odamlarga zarur bo'lgan mahsulotlar ishlab chiqaradi yoki xizmatlar ko'rsatadi. Odamlarning tadbirkorlarni hurmat qilishlarining yana bir asosiy sababi – tadbirkorlar davlatga juda ko'p miqdorda soliq to'lاب, davlat xazinasini to'ldiradilar.

- Tadbirkorlar davlatga qanaqa soliqlar to'laydilar? – deb so'radi Jamshid.

- Tadbirkorlar olgan daromadlaridan daromad solig'i, yerdan foydalanganlari uchun yer solig'i, mulklaridan mulk solig'i to'laydilar, – deb javob berdi Olim aka.

Farhod va Jamshid Olim akaga katta bo'lganlarida albatta tadbirkor bo'lishlarini aytdilar.

**Savollarga javob bering.**


1. Tadbirkorning asosiy maqsadi nima?
2. Tadbirkorning odamlarga qanday nafi tegadi?
3. Tadbirkor qanday soliqlar to'laydi?



2. Rebusni yeching. Topilgan so'zning iqtisodiy ma'nosini aytинг.



3. Rebus-krossvordni yeching. Hosil bo'lgan so'z nimani bildiradi?



4. Yashiringan so'zlarni toping. Bu yerda biz o'rgangan to'rtta iqtisodiy so'z yashiringan.

N	S	M	D	L	N	Z	B	T	C	H	Y	A	N
P	T	O	E	H	I	Y	O	J	H	Y	A	V	
I	O	U	L	Y	H	K	L	C	H	Z	T	S	H
F	C	S	O	L	I	Q	F	V	A	Q	P	R	G
R	L	A	G	Q	N	F	T	P	O	E	D	Y	U
F	O	Y	D	A	R	H	Y	U	I	B	J	X	H
G	Q	S	T	L	O	A	V	I	J	Z	G	H	R
S	Q	S	T	L	O	A	D	A	R	O	M	A	D
R	Y	E	F	Y	V	K	L	U	H	F	P	B	L



### 4.3. Siz tadbirkor bo'lganingizda

#### 1. O'qing.

##### Iqtisodiyot darsi

Sinfda iqtisodiyot darsi bo'layotgan edi. O'quvchilar o'zaro bahslashar edilar.

O'qituvchi ularga savol berib qoldi:

- Qani ayting-chi, bolalar. Agar siz tadbirkor bo'lganingizda nimalar qilgan bo'lar edingiz?
- Men do'kon ochardim. Do'konimda bolalar uchun eng yaxshi o'yinchoqlar sotar edim, – dedi Ikrom.

Shuhrat esa:

- Men shirinliklar, tort, pirojniy, shokolad va boshqa qandolat mahsulotlari ishlab chiqaruvchi firma ochar edim. Bu mahsulotlarimni hammaga e'lon qilish uchun televizorga reklama berar edim, – dedi.
- Sen nima qilgan bo'lar eding? – deb o'qituvchi Sardordan so'radi.
- Men tadbirkor bo'lganimda, davlatga soliqlarni o'z vaqtida to'lar edim. Chunki faqat halol daromadgina barakali bo'ladi, – dedi Sardor.

O'qituvchi Sardorning javobidan juda qoniqli.

##### Savollarga javob bering.

1. O'qituvchi nima maqsadda shunday savol berdi? Agar sizga shunday savol berilsa, nima deb javob bergan bo'lar edingiz?
2. Ikrom, Shuhrat, Sardorning orzusi amalga oshsa, ularni tadbirkor deb atasaga bo'ladimi?
3. Nuqtalar o'rniغا berilgan so'zlarni qo'yib gaplarni to'ldiring.

Har bir tadbirkor davlatga ... to'lashi lozim. Shundagina uning daromadi ... bo'ladi, ishi ... keladi. Siz katta bo'lgan



ningizda ... bo'lsangiz, eng avvalo, davlatga ... to'lashni unutmang. Chunki siz to'lagan soliqni ... yurt ravnaqi va xalq ehtiyojiga ishlataladi.

*Foydalaniш uchun so'zlar:* soliq, halol, baroridan, tadbirkor, davlat.

### 3. O'qing.

#### Ilм

Ilм deb o'qimak, yozmakni, yaxshi bilmak, har bir kerakli narsani o'rganmakni aytilar. Ilм inson uchun g'oyat oliv va muqaddas bir fazilatdur. Ilм bizning o'z ahvolimizni, fikrimizni qilich kabi o'tkir qilur. Savobni gunohdan, halolni haromdan, tozani murdordan ayirib berur. To'g'ri yo'lga rahnamolik qilur.

Ilmsiz inson mevasiz daraxt kabidir. Ilмning foydasi shu qadar ko'pdirki, ta'rif qilg'on birla ado qilmak mumkin emasdur.

Bizlarni jaholat qorong'uligidan qutqarur, madaniyat, insoniyat, ma'rifat dunyosiga chiqarur.

Yomon fe'llardan, buzuq ishlardan qaytarur, yaxshi xulq va adab sohibi qilur. Butun hayotimiz, salomatligimiz, himmatimiz, g'ayratimiz ilmgaga bog'liqdur.

(“Gulxan” jurnalidan)

#### Savollarga javob bering.

1. Ilмни boylik desak bo'ladimi?
2. Kitob – bilim manbai, deganda nimani tushunasiz?
3. Siz boylikning qanday manbalarini bilasiz?
4. Ilmsiz boyigan yaxshimi yoki ilm bilanmi? Nima uchun?
5. Ilmlni qashshoq bo'lgan yaxshimi yoki ilmsiz boy bo'lgan yaxshimi?



4. Nuqtalar o'rniga 3 ta harf qo'yib, so'z hosil qiling va shu so'zlarning ma'nosini aytib bering.

Tejam(...), fer(...), do'(...), xari(...), tadbir(...), boy(...),  
ol(...), pul(...), meh(...).

5. Rebusni yeching.



6. Yashiringan so'zni toping.

$$45 : 9 \quad O$$

$$72 : 9 \quad S$$

$$49 : 7 \quad I$$

$$81 : 9 \quad Q$$

$$28 : 7 \quad L$$



7. Yashiringan so'zni toping.



$$95 - 85 \quad I$$


$$63 : 9 \quad O$$

$$25 : 5 \quad B$$

$$64 : 64 \quad Y$$

$$59 - 53 \quad L$$

$$45 - 37 \quad K$$



# M U N D A R I J A

## I. Oila iqtisodiyoti

1.1. Oilaning daromad manbalari: ish haqi, nafaqa, stipendiya va boshqalar. Daromad solig'i .....	4
1.2. Oila xarajatlari: oziq-ovqat, kiyim-kechak, uy jihoz- lari, soliq to'lovlari va boshqalar. Oilada iqtisod va tejamkorlik .....	6

## II. Mulk

2.1. Bu narsa – meniki, bu narsa – seniki, shaxsiy mulk.....	10
2.2. Bu narsa – bizniki. Oilaviy mulk. Jamoa mulki. Maktab jamoasi mulki. Davlat mulki .....	14
2.3. Mulk solig'i. Yer solig'i. Mulk va yer soliqlari nima? .....	21
2.4. Mulk va uning egasi. Xo'jayinlik hissi. Hamma narsaning egasi bo'lgani yaxshimi? Mulk tejamkor kishini yaxshi ko'radi .....	23

## III. Boylik

3.1. Boylik nima? Qanday boyliklarni bilasiz? Tabiiy boyliklar. Moddiy va ma'naviy boyliklar .....	29
3.2. Ixtiro va kashfiyotlar. Tarixiy yodgorliklar, san'at va badiiy asarlar. Qanday odamni boy desa bo'ladi? Boylikning manbalari .....	34

## IV. Tadbirkor kishilar

4.1. Tadbirkorlar kimlar? Ular nimasi bilan boshqalardan ajralib turadi? Tadbirkorlar nima ish bilan shug'ullanadilar? .....	37
4.2. Tadbirkorlik – boylik manbai. Qanday firmalarni bilasiz? Ular nima ish bilan shug'ullanadilar?.....	42
4.3. Siz tadbirkor bo'lganingizda .....	44



**SHERZODEBEK SARIQOV, SHAHNOZAXON SARIQOVA,  
XURMATOY XOTAMOVA, KOMILJON ALLAMJONOV**

**IQTISOD VA SOLIQ ALIFBOSI**

Soliq bo'yicha ma'lumotlar bilan to'ldirilgan,  
qayta ishlangan ikkinchi nashr

*Umumta'lim maktablarining  
3-sinfi uchun o'quv qo'llanma*

Toshkent — "Yangiyul poligraph service" — 2008

Muharrir — R. Ko'chkarov

Texnik muharrir — A. Kaybisheva

Musahhih — Sh. Oripova

Sahifalovchi — O. Mamadaliyev

Original-maketedan bosishga ruxsat etildi 14.10.08. Bichimi 70x90<sup>1</sup>/16.  
«Arial» garniturası. Ofset bosma usulda bosildi. Sharlı bosma tabog'ı 3,0.  
Nusxasi 95000. Buyurtma № 66.

"Yangiyul poligraph service" MCHJ tayyor diapositivlaridan IPAK "Shark"da bosildi.  
Toshkent sh., Buyuk-Turon ko'chasi, 41.